# Sh A R T N O M A № 07/03

**«05» aprel 2022 yil** **Xonqa tumani.**

**YaTT Turaev Nuriddinxon Abdullaxonovich** bundan buyon bir tomondan «Sotuvchi» deb yuritiladi, guvohnoma asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan Xonqa tuman tibbiyot birlashmasi rahbari K.R.Tangriberdiev o'z nizomi asosida ish yurituvchi bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi va quyidagilar xaqida ushbu shartnoma tuzildi.

**ShARTNOMA PREDMETI.**

«Sotuvchi» o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish, «Buyurtmachi» esa qabul qilib olingan mahsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

**II. ShARTNOMA NARXI.**

2.1.

| t/r № | Tovarning nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Terak | dona | 19 000 | 2 300 | 43 700 000 |
| 2 | Katalpa | dona | 1 100 | 12 000 | 13 200 000 |
| 3 | Baqaterak | dona | 1 182 | 5 000 | 5 910 000 |
| 4 | Kayrag'och | dona | 12 500 | 3 500 | 43 750 000 |
| 5 | Pavloniya | dona | 2 600 | 12 000 | 31 200 000 |
| 6 | Yapon safurasi | dona | 300 | 8 000 | 2 400 000 |
| 7 | Tol (ilon) | dona | 120 | 12 000 | 1 440 000 |
| 8 | Yasin | dona | 700 | 12 000 | 8 400 000 |
| | **Jami** | | | | **150 000 000** |

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi: **150 000 000 (bir yuz ellik million) so'm.**

**III.XISOB-KITOB QILISh TARTIBI.**

«Buyurtmachi» tovar uchun oldindan, yetkazib berilayotgan tovar, mahsulot (ko'rsatilgan xizmat) ning oldindan avans miqdorini 30% miqdorida, qolgan 70% qismini mahsulot to'liq yetkazib berilganidan so'ng pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

Tovarlar «Sotuvchi»ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

**IV. TOVAR YeTKAZIB BERISh MUDDATI.**

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 10 kun muddat ichida «Xaridor»ga yetkazib berishi shart.

**V. TOVAR SIFATI.**

5.1. Yetkazib berilayotgan tovar yoki mahsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiqlik sertfikati), ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar va «Xaridor»ning talablariga mos kelishi shart.

**VI. TOMONLARNING MAJBURIYaTLARI .**

«Sotuvchi» majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachi»ga tovarni yetkazib berish;
- Shartnomaning shartlari «Buyurtmachi» tomonidan buzilganda berilgan mahsulotni qaytarib olib qo'yish huquqiga ega;
- Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilmaganligi to'g'risida bildirishnoma olgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mol-mulkni 10 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu sharnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mol-mulk bahosini qaytarib berish.
- «Sotuvchi» yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

«Buyurtmachi »ning majburiyatlari:

- «Buyurtmachi» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.
- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu xaqida 3 kun ichida «Sotuvchi»ni ogohlantirish.

- To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

Mahsulot berish vaqtida shartnoma bandlariga to'liq rioya qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zarar ni to'liq qoplaydi va 0,4% miqdorda penya to'laydi.

«Sotuvchi» mahsulotni to'liq yetkazib bermaganligi uchun «Xaridor»ga yetkazib berilmagan xar kun uchun mahsulot bahosidan 0,5 % penya to'laydi.

Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo'lsa, aybdortaraf 0,5 % miqdorida penya to'laydi.

Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulkni o'z vaqtida almashtirishdan bosh tortsa, «Sotuvchi» 20 % miqdorda jarima to'laydi.

Mahsulot uchun «Xaridor» o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa, mablag' miqdoridan 0,4 % penya to'laydi, lekin 50 % miqdordan oshib ketmasligi kerak.

«Sotuvchi» omboridan o'z vaqtida mol-mulk olib chiqib ketilmasa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, «Xaridor» xar bir o'tkazib yuborilgan kun uchun «Sotuvchi»ga omborda saqlanganligidan kelib chiqqan zarar uchun 0,1 % miqdorida jarima to'laydi.

Jarima to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

«Sotuvchi» mahsulotni to'liq yetkazib bermaganligi uchun 20 % miqdorda jarima to'laydi. Shartnomada belgilanmagan xolatlar O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yilgi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risidagi Qonuni va Fuqarolik kodeksi talablari asosida ko'rib chiqiladi.

## VIII. FORS-MAJOR XOLATLARI.

Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi holatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday holatlar tegishlidir.

Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.

Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

## IX. ShARTNOMANI O'ZGARTIRISh VA BEKOR QILISh TARTIBI.

Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo xo'jalik sudi orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

Ushbu shartnoma 2022 yil «01» aprel 2022 yil «31» dekabrgacha 2 nusxada tuzildi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, G'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## X. QO'ShIMChA ShARTLAR.

## XI TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| | |
|---|---|
| **«Buyurtmachi»** | **«SOTUVChI»** |
| **Xonqa tuman tibbiyot birlashmasi** | **YaTT Turaev Nuriddinxon Abdullaxonovich** |
| **Xonqa tuman Nurli osmon ko'chasi 3 uy** | **Farg'ona vil. Farg'ona sh. A.Jomiy ko'chasi 21/29-uy** |
| **ShHR: 100022860332237073101054001** | **H/r 2021 8000 600 737 124 001** |
| **Bank: Markaziy bank Toshkent.sh HKKM** | **ATB «Trast bank» Farg'ona bo'limi** |
| **MFO: 00014, INN: 200429599** | **MFO: 01123, INN: 519 297 998** |
| **Tel: 8362-39-91-554** | **tel: +99899-999-36-66** |
| **Rahbar K.R.Tangriberdiev** | **Rahbar N.Turaev** |

TURAYEV NURIDDINXON ABDULLAXONOVICH

Ushbu tuzilayotgan shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasiing «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuniy va boshqa qonun xujjatlariga asosan to'g'ri tuzilgan. Shartnomadagi shartlar, jumladan taraflarning moddiy javobgarlik masalasi amaldagi qonun xujjatlariga mos keladi.

Xulosa qilib aytish mumkin, mazkur shartnomani tuzish va imzolash mumkin.

**Xuquqshunos**___________________________

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: NF6424012188

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA.

№ QQ57240765

1. Loyihaning turi: SHARTNOMAGA
2. Loyihaning nomi:

YATT To‘rayev Nuriddinxon bilan Xonqa tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasidagi 150 million so‘m miqdoridagi ko‘chatlarni sotib olish to‘g‘risidagi 07/03-sonli shartnoma

3. Loyiha Xonqa tuman tibbiyot birlashmasi ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Loyiha Xonqa tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 04 aprelda dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvo[illegible]qarilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Xonqa tuman yuridik xizmat ko‘rsatish markazi boshlig‘i** **A.Niyozmetov**

2022-yil «04» aprel